“Uzbekistan Airways” nufuzli 2020PAX International Readership Awards mukofotini qo‘lga kiritdi, ushbu mukofot butun dunyo aviakompaniyalari o‘rtasida yo‘lovchilarga eng qulay sharoitlarni ta’minlaganligi uchun taqdim etiladi. Aviakomoaniya “MDH mamlakatlari ichida biznes klass yo‘lovchilariga eng yaxshi to‘plam” nominatsiyasi bo‘yicha ushbu mukofotga sazovor bo‘ldi.

Mukofot Kanadaning transport sohasida keytering va qulaylik yaratish masalalariga bag‘ishlangan “PAX International” jurnali tomonidan ta’sis etilgan bo‘lib, jurnal o‘quvchilari va ha’at a’zolarining bergan ovozlari asosida topshiriladi. “Uzbekistan Airways” ushbu nufuzli mukofotga ikki yil ketma-ket sazovor bo‘lmoqda.

Tashkilotchilar saytida ta’kidlanganidek, “Uzbekistan Airways” yo‘l to‘plamlari − bu erkaklar uchun sipo qora va ayollar uchun yorqin qizil rangli ixcham kosmetik



“Uzbekistan Airways” 2019-yil yakunlari bo‘yicha “Travel Plus Awards” tanlovida ham o‘zining yetakchilik mavqeini yana bir bor tasdiqlab, “Osiyo / Avstraliya mintaqasidagi eng yaxshi biznes-klass to‘plami”nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi.

“Travel Plus Awards” - ushbu soha tarixidagi ilk mukofotlardan biri bo‘lib, u Angliyada tashkil etilgan va eng yaxshi yo‘l to‘plamlari uchun beriladi. Qarorni nafaqat ekspertlardan, balki yo'lovchilar fikrini hisobga oladigan maxsus guruhdan tashkil topgan mustaqil hakamlar hayati qabul qiladi.

“PAX International Readership Awards” va “Travel Plus Awards” mukofotlari bilan taqdirlash marosimi odatda har yili bahorda Gamburgda bo‘lib o‘tadigan World Travel and Catering EXPO ko‘rgazmasi doirasida tashkil etiladi.Bu yil esa, epidemiologiya vaziyati tufayli PAX International barcha nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar ro‘yxatini o‘zining saytida e’lon qildi, “Travel Plus Awards” taqdirlash marosimi esa platformasida onlayn bo‘lib o‘tdi.

Yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, servis ashyolarini ishlab chiqish va ularning turlarini kengaytirish “Uzbekistan Airways”ning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Biz pandemiyani yengishimizga, fuqaro aviatsiyasi yana dunyo bo'ylab parvozlarini davom ettirishiga va “Uzbekistan Airways” dunyo aviatsiya hamjamiyatida o‘z mavqeini mustahkamlashda davom etishiga ishonamiz.

Download PDF